



## LIDER SHAXSINING ASOSIY XUSUSIYATLARI VA LIDERLIKNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

TerDU Ijtimoiy fanlar fakulteti  
Amaliy psixologiya yo'nalishi  
2 - bosqich talabasi,  
Bozorova Ro'zigul Xurramovna

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada liderlikning asosiy jihatlari va uning shakllanish bosqichlari haqida gap boradi. Shuningdek, dastlab uning qay tarzda namoyon bo'lishi, uning rivojlanishi hamda qay tartibda amalga oshishi to'g'risida ham fikr yuritiladi. Bolalarda liderlikning ilk ko'rinishlari haqida ham mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Liderlik, egoizm, agressevlilik, alturizm, stress, abulya, paraabulya, genetic asos, ijtimoiy omil, sotsiogenetik qonun, aksentuatsiya, tafakkur, individ, individuallik, shaxs.

**Annotation:** This article talks about the main aspects of leadership and the stages of its formation. It is also thought about how it will be manifested, its development and the order in which it will be implemented. The first manifestations of leadership in children are also discussed.

**Key words:** Leadership, egoism, aggressiveness, altruism, stress, abula, parabola, genetic basis, social factor, sociogenetic law, accentuation, thinking, individual, individuality.

**Аннотация:** В данной статье говорится об основных аспектах лидерства и этапах его формирования. Также задумывается о том, как оно проявляется, его развитие и в каком порядке реализуется. Обсуждаются также первые проявления лидерства у детей.

**Ключевые слова:** Лидерство, эгоизм, агрессивность, альтруизм, стресс, абула, парабула, генетическая основа, социальный фактор, социогенетический закон, акцентуация, мышление, личность, индивидуальность.

Liderlik ko'pincha insonning o'z xatti-harakatlarini amalga oshirishda, ularning xulq-atvorida namoyon bo'luvchi ko'rinishi hisoblanadi. Lider bo'lish uchun aynan biror-bir yuqori kasb egasi bo'lish yoki bo'lmasa biror mansabdor shaxs bo'lish shart emas. Liderlik so'zi boshlovchi, yetakchi degan ma'nolarni berganligi uchun ko'pincha shunday deb o'ylashadi ya'ni biron-bir katta lavozim bo'lishi kerak. Biroq, lider bu aslida shunday kishiki, boshqalarning ham uning ortidan intilishi uning kabi ish olib borishini xohlaydigan shaxs hisoblanadi.

Ba'zida liderlik vaqtincha ham bo'lishi mumkin. Bunda insonning amalga oshirilayotgan faoliyatining tugashi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin, yoki bo'lmasa uning o'z hamkasblari bilan olib boradigan vaqtinchalik muloqotida ham namoyon bo'ladigan holat hisoblanishi mumkin. Liderlikning yetishmasligi insonning o'z kamchiliklari sababli ham bo'lishi mumkin. Insonning liderlik xususiyati, avvalo, uning o'ziga bo'lgan ishonchida ham namoyon bo'ladi. Inson o'ziga ishonar ekan, uning birinchi hatti-harakatlaridayoq liderligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning o'ziga bo'lgan ishonchi har



qanday vaziyatda juda muhim sanaladi. Kishilarning biror bir muammoga duch kelganida va unga yechim topolmaganida ham uning ishonchi uni qiyin vaziyatdan chiqib ketishiga sababchi bo'lishi mumkin. Chetdan kuzatganda shuni anglab yetish kerakki, o'ziga ishongan insonlar atrofdagilarga ko'p savol bilan murojaat etmaydilar. Xuddi shuningdek bunday insonlar o'z ishlarini yaxshi angelaydi degan fikr ham namoyon bo'lishi mumkin. Shu sababli ham o'ziga ishongan insonlar hurmat, obro', ishonch topadilar. Insonning biror bir savolga bilmayman deb javob berishi ham oddiy hol hisoblanadi. Hattoki, lider uchun ham bu holat normal holatdir, biroq qayta-qayta bilmayman deyish liderga xos xususiyatlardan hisoblanmaydi. Negaki, liderning qayta-qayta bilmayman deyishi uning liderlik maqomiga mos kelmaydi, albatta. Uning bu javobi ma'lum bir vaqtda maqomining yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, lider kishi, avvalo, o'z ustida ishlashi, buning uchun ko'plab bilimlarni o'zlashtirishi zarur hisoblanadi. Har bir faoliyatda kishining liderligi kerak hisoblanadi.

Insonning liderligi uning qat'iyatligi bilan bergan javoblarida ham namoyon bo'lishi kerak. Shu bilan birga lider shaxsi mantiqan tushunuvchan va keng mulohazali bo'lishi asosiy omil sanaladi. Yetakchilik qilayotgan shaxs lider hisoblanar ekan, u ushbu yo'nalishdagi qoidalar va chegaralarni belgilovchi shaxs hisoblanadi. Liderlikda qat'iyat, tafovut bilan birga mehribonlik ham muhim hisoblanadi. Lider insonning qat'iyatligi yaxshi, albatta. Biroq, uning agressivligi hamda o'ta me'yordan oshgan talabchanligi, shuningdek, injiqligi ham uning jamoadagi nufuzining yo'qolishiga olib keladi. U yetakchilik qilayotgan jamoa uning faqat ishbilarmonligini, qat'iyatligini emas, balki mehribonligini ham tavsiflashi zarur. Bunday jamoada boshqa kishilar liderga bo'lgan munosabatini o'zgartirmaydi va uni qo'llab-quvvatlaydi. Ana shunday jamoada ishlayotgan yoki rahbarlik qilayotgan lider o'zini anglab yetgan holda o'z ustida ishlashi kerak. Bilmayman so'zining o'rniga biron-bir ma'lumotga tayangan holda javob izlab topishi kerak. Xuddi shuningdek, o'z kasbining ustasi bo'lishi kerak. Liderlikning muhim sifati bu o'z ishining ustasi, mutaxassisi bo'lish hisoblanar ekan, u o'ziga zarur bo'lgan bilimlarni yetarlicha o'zlashtirishi zarur. Agar bunday bo'lmas ekan, albatta, biror bir mutaxassis kelib uning liderligini egallashi muqarrar. Shu bilan birga liderlik o'z-o'zidan bo'lib qoladigan holat yoki jarayon emas, u tug'ma yoki yillar mobaynida shakllanishi ham mumkin bo'lgan jarayon hisoblanadi. Uning yuzaga chiqishi ham shart-sharoitlar bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Shu sababli, bolalarga kichkinalik paytlarda e'tiborni kuchaytirib borish kerak, negaki, insonlarda ularning qobiliyati kichkinaligida shakllanadi va namoyon bo'ladi. Liderlik insonning o'z fikrlash doirasidan kelib chiqqan holda namoyon bo'lishi mumkin. Liderlik ko'pincha insonlarni ma'lum bir insonlar ustidan yetakchilikni olib borishga qaratilgan faoliyatida namoyon bo'ladi, biroq liderlikning ham o'z qonun-qoidalari va majburiyatlari bor. Insonda kechadigan barcha psixik holatlar, psixik faoliyatlar insonning ongi bilan bog'liq ekan, insonni boshqarib turadigan bu ong o'z o'rnida to'g'ri qaror qabul qila olishni bilishi kerak. Chunki, insonlar ko'pincha o'zlarini xaq deb o'ylashadi. Ammo lider shaxsi nafaqat o'zini, balki o'zgalarning ham to'g'ri fikrlarini anglay olib ularga adolatli fikr berish orqali ham o'zlarini namoyon qilishi mumkin. Insonlarda shunday bir holatlarga ham duch kelamizki, ya'ni ko'pincha boshliqlar boshqalarni



kamsitgan holda o'zlarini bilimli sanashadi, biroq lider shaxsi boshqalarning ham xaqligini tan olgan holda ularga to'g'ri yondashish orqali o'zining liderligini yana bir bor isbotlasa ajab emas. Lider shaxsi shunday insonki, u kerakli paytda to'g'ri qaror qabul qila oladi. Boshqalarda qanday holat kechayotganini ham oldindan ko'ra oladi. Shunday bir ishni amalga oshiradiki, bunda jamoa birlashgan holda faoliyat olib boradi. Liderlikni faqat faoliyat yoki biror-bir jarayon bilan bog'lab emas, balki ularning xatti-harakatlari xarakteri bilan ham bog'lab o'rganish lozim. Psixologiyada liderlik asosiy tushunchalardan hisoblanib, buni ko'plab olimlar o'z tadqiqotlarida o'rganib o'tishgan.

Biroq, ko'pincha bu holatlar samarali va e'tiborga olingan holatlardan hisoblangan. Shuni ham unutmash kerakki, inson biror-bir ishni amalga oshirishi bu uning kichkinalik paytda bolalikdagi ta'lim-tarbiyasi bilan ham bog'liq bo'lsa ajab emas. Ularning bu faoliyatni amalga oshirishi ota-onaning to'g'ri yo'l ko'rsatishi, to'g'ri qanoatlantirishi kabi holatlar bilan ham bog'liq bo'lsa ajab emas. Lider deganda faqat insonlar ustida yetakchilik qilib, ularga o'z so'zini o'tkaza olish va biror ishni amalga oshirishi emas, balki insonning vijdonan amalga oshiradigan faoliyati hamda vijdonan qabul qiladigan qarorlarini ham tushunish mumkin. Inson biror bir faoliyatni amalga oshirishi bu uning diqqati bilan ham bog'liq bo'lgan holat hisoblanadi. Diqqat biror bir predmetga insonning ongi to'planishi hisoblanadi. Bunda ongli ravishda qaratilgan jarayon hisoblanar ekan, bunday inson ma'lum bir rejalar orqali diqqatini amalga oshirib o'z faoliyatini yo'lga qo'yadi. kishining diqqatini jamlay olmasligi esa, abuliy, paraabulya kabi kasalliklarga olib keladi. Bu esa, insonning hattoki, oddiy bir osongina elementlarni ham o'zlashtira olmasliklarida namoyon bo'ladi. shunday ekan, liderlikning ham ko'rinishi undagi kechadigan jarayonlar va diqqatning to'g'ri yo'naltirilishiga bog'liq. Bu paraabuliy va abuliyaning unda kechishiga yo'l qo'ymasligi zarur holat hisoblanadi. Insonda kechadigan bunday kasalliklar insonni nafaqat liderligi, balki inson shaxsining yo'qolishiga ham olib kelishi mumkin. Insonda insonligini belgilab beruvchi tafakkur mavjud. Tafakkur bu mantiqning ikkinchi ko'rgazmali nomi hisoblanadi. Shunday ekan, bu mantiqli rejaning qay tarzda amalga oshishida namoyon bo'ladi. Lider inson boshqalardan ajralib turadi, unda bu xususiyat yaqqol ko'zga tashlanadi. Insonlarning lider bo'lishi temperamenti bilan bog'liq emas. Insonning liderlikdan dalolat beradigan xususiyatlari temperamentning to'rtta tipidan qaysi biri bilan bog'liq bo'lishi mumkin degan savol tug'ilishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, bu liderlikni aniqlab bermaydi, biroq unda ko'pincha har bir temperamentning eng yaxshi jihatlari o'zlashtirilgan bo'ladi. Lider inson o'zining qanday yo'ldan borayotganini, qay ish to'g'ri va qaysi ish noto'g'ri ekanligini anglay oladi. Shu sababli ular oldindan ko'ra olish qobiliyatiga ega bo'lgan insondirlar. Lider bo'lish uchun inson, avvalo, yuksak bilimga, yuksak tafakkurga ega bo'lishi kerak, chunki yuksak tafakkurgina uning insonlardan alohida ajralib turishiga sababchi bo'ladi. Chunki, bilimli inson hech qachon boshqalar nazaridan yoki yakka ajralib qolmaydi. Shunday ekan, lider bo'lish bu insonning o'ziga bog'liq bo'lgan holatdir. Har bir inson o'z ustida ishlasa, tinimsiz mehnat qilsa u albatta o'ylagan rejalarini amalga oshiradi va liderga aylanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhiddinova D & Saydaliyeva M. (2023). Religious beliefs as a factor of personal psychological health. International bulletin of engineering and technology.
2. Umumiy pedagogika “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2018.
3. O. Sodiqova, S.Madaliyeva, “Psixologiya” - Toshkent 2010.
4. E.E.G‘oziyev, “Ontogenez psixologiyasi” – Nazariy eksperimental tahlili, Toshkent monografiya – 2010.
5. Fazliddin Ikroruddin, “Nikoh va oila risolasi”, Toshkent – 2004.
6. X.G.Sharafuddinova. “Umumiy psixologiya” – Toshkent 2022.
7. Davletshin.M.G, “Zamonaviy maktab o‘quvchisining psixologiyasi” – Toshkent – 1999.